

**RIVOJLANISHIDA NUQSONI BO'LGAN BOLALAR VA O'SMIRLAR BILAN
KOMPLEKS LOGOPEDIK ISH TASHKIL QILISH JARAYONIDA
PSIXOTERAPIYA VA PSIXOKORREKSIYA USULLARINI QO'LLASH**

Anorboyeva Jasmina Farhod qizi

*Jizzax Davlat Pedagogika Universiteti Pedagogika va Psixologiya fakulteti Defektologiya
[logopediya] yo'nalishi 402-guruh talabasi*

Annotatsiya: *Ushbu maqola maktabgacha yoshdagi bolalarning psixologik xususiyatlari yuqori darajadagi ishonuvchanlik, hissiy ta'sirchanlik, shifokorga, tarbiyachi, pedagogga bog'lanib qolishida psixoterapiyani samarali qo'llash uchun keng imkoniyatlarning samarali omillari o'ziga xos jihatlari ilmiy yondoshuvlar asosida yoritilgan.*

Kalit so'zlar: *Psixoterapiya, kompleks davolash, ishonuvchanlik, hissiy ta'sirchanlik, shifokor, tarbiyachi, pedagog, "kasal emas, sog'lom", nevrotik ta'sir etish shakllari.*

Abstract: *This article describes the psychological characteristics of preschool children, high level of trustworthiness, emotional sensitivity, effective factors of wide opportunities for effective use of psychotherapy in dependence on a doctor, educator, pedagogue based on scientific approaches.*

Key words: *Psychotherapy, complex treatment, trustworthiness, emotional sensitivity, doctor, educator, pedagogue, "not sick, healthy", forms of neurotic influence.*

Аннотация: *В статье описаны психологические особенности детей дошкольного возраста, высокий уровень доверия, эмоциональная чувствительность, действенные факторы, широкие возможности эффективного использования психотерапии в зависимости от врача, воспитателя, педагога на основе научных подходов.*

Ключевые слова: *Психотерапия, комплексное лечение, благонадежность, эмоциональная чуткость, врач, воспитатель, педагог, «не больной, здоровый», формы невротического воздействия.*

Aytib o'tish joizki, mustaqillikka erishilishi bilanoq, hukumatimiz tomonidan o'sib ulg'ayayotgan bolajonlarimizning ma'naviy- axloqiy tarbiyasiga, uni amalga oshirishda asosiy omillardan sanaluvchi til o'qitish masalalariga kuchli e'tibor qaratish dolzarb muammolardan biridir. Bunday diqqat e'tibor ona tilini o'rganish va o'qitish o'zligimizni anglash, uning ertangi kunimiz poydevori bo'lgan yoshlarimizni munosib tarzda tarbiyalab, voyaga etkazishning muhim vositasi ekanligini chuqur tushunish bilan asoslanadi. Ma'lumki, til vositasida inson muloqotga kirishadi – fikr almashadi, axborot oladi, bilim, ko'nikma va malakalarni egallaydi. Jamiyatda tilni o'zlashtirish jarayoni kishilarning o'zaro nutqiy faoliyati (kommunikasiyasi) sharoitida amalga oshadi. Nutqi o'z yoshiga nisbatan qo'yilgan talablar darajasida rivojlangan bola atrofdagilar bilan tez va yengil muloqotga kirishadi, o'z istak va fikrini tushunarli qilib ifoda eta oladi, maktabda muvaffaqiyatli o'qib ketishi uchun zarur bo'lgan ko'nikma va malakalarni egallaydi. Psixoterapiya va psixokorreksiya - bu

insonlarning salomatligini saqlash maqsadida o'zaro bir biri bilan bog'langan psixologik ta'sir etish shakllaridir.

Psixoterapiya- bu psixikaga kasallik hodisalarini bartaraf etish yoki oldini olish, o'ziga o'zining nuqsoniga nisbatan to'g'ri munosabatni rivojlantirish maqsadida kompleks davolovchi- psixologik – pedagogik ta'sir etishdir. Rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalarda psixoterapiya davolovchi- psixologik – pedagogik korreksion tadbirlar, davolashning ta'lim va tarbiyaning barcha jarayonlari bilan uzviy bog'liq .Psixoterapiya o'tkazish uchun mutaxassis bola kasalligi bilan yaxshi tanish bo'lishi kerak.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning psixologik xususiyatlari (yuqori darajadagi ishonuvchanlik, hissiy ta'sirchanlik, shifokorga, tarbiyachi, pedagogga bog'lanib qolishi) psixoterapiyani samarali qo'llash uchun keng imkoniyatlar ochadi. Rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalarning ko'pchiligida erta ikkilamchi reaktiv xarakterdagi hissiy buzilishlar kuzatilib, ular ishonchsizlik, nutqiy muloqotdan qo'rqish, kayfiyatning tushkunligi, haddan tashqari tez hafa bo'lishida, havsirash, qo'zg'aluvchanligidan namoyon bo'ladi. Bu hissiy buzilishlar bolaning nerv tizimini yanada zaiflashtirdai va turli nevrotik reaksiyalarning rivojlanishiga qulay sharoit yaratadi (duduqlanish, enurez, qo'rquv, qaltirash va hakoza). Maktabgacha yoshdagi bolalar bilan ishlashda o'yinli psixoterapiya keng qo'llaniladi. O'yin jarayonida bola o'zini to'g'ri tutishga o'rgatiladi.

Psixokorreksiyaning metodlari va usullari “kasal emas, sog'lom”, nevrotik ta'sir etish shakllari va dizadaptatsiya hulq atvorlari shakllana boshlagani haqida bolalar gap ketganida birinchi rejaga chiqadi. Shu tariqa, psixoterapiyaga davolash metodi sifatida, psixologik korreksiya esa, -bolada psixologik havf - hatar omillarini qayta qurish, oilada iliq munosabatlarni yaratuvchi profilaktika metodi sifatida qarash mumkin. Psixokorreksiyaning boshlang'ich bosqichi maxsus tanlangan psixologik metodikalaridan foydalanib psixik jarayonlarni turli tomonlarini, xususiyatlarini, shaxsiy sifatlarini va faoliyat turlarini kompleks tashxis qilish hisoblanadi.

Psixokorreksion kompleks o'zaro bog'langan bir nechta bo'limlardan tashkil topgan. Har bir bo'lim turli xil vazifalarni amalga oshiradi va maxsus tashkil etilgan metodlar va usullardan tashkil topgan. Psixoterapiyani korreksion pedagogikada qo'llash imkoniyatlari So'nggi yillarda korreksiyaning shaxslararo munosabatlarning ijtimoiy – psixologik qonuniyatlarini qo'llashga asoslangan psixologik metodlarini jadal rivojlanishi bilan bog'liq ravishda psixoterapiyaning notibbiy modellari, xususan, psixologik modeli paydo bo'ldi.

Xulosa qilib aytganda psixoterapevtik davolovchi -reabilitatsion tadbirlarda defektologlar, psixologlar pedagoglar faol ishtirok etishi kerak.

Funksional va organik eshitish buzilishlarini differentsial tadqiq qilishda audiometrik ma'lumotlardan tashkari bemorning subektiv xolatini shaxsiy ta'sirlanish xususiyatlarini xisobga olish , iloji boricha psixologik tekshirish va psixiyator ko'rigidan o'tkazish zarur.

Bemorlarda davolovchi pedagogik ta'sir maqsadida psixoterapevtik davolashni o'tkazishda bolalarning individual xususiyatlarini, uning ruxiy rivojlanishini sustlashganini xisobga olish kerak. Davolovchi pedagogik tadbirlarning vazifalari quyidagilardan iborat: bemorlarni mustaqil fikrlashga o'rgatish ; nutqiy faollikni rivojlantirish, shuningdek to'g'rigapirish muloqat kobiliyatini rivojlantirish; bemorlarda eshitishni rivojlantirishga faol munosabatni tarbiyalash

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Akramova, X. (2020). Коррекционно-педагогические обобщенности формирования навыков здорового образа жизни у детей с умственной отсталостью в семейных условиях. Архив Научных Публикаций JSPI, 15(1).
2. Akramova, X. (2020). Социально-педагогическая работа с детьми дошкольного возраста. Архив Научных Публикаций JSPI, 7(1).
3. Akramova, X. (2020). Peculiarities of the labor activity of mentally retarded pupils. Архив Научных Публикаций JSPI, 15(1).
4. Akramova, X. (2020). Замонавий мультимедиа воситаларидан фойдаланиш - муваффакият гарови . Архив Научных Публикаций JSPI, 1(12), 1-5.
5. Akramova, X. (2020). Мактабгача ёшдаги болалар билан олиб бориладиган ижтимоий педагогик фаолият технологияси. Архив Научных Публикаций JSPI, 1(16), 1-5.